Borrowed Proper Nouns in English and Uzbek: a Comparative Analysis.....	608
Amirqulova Feruza Abdurashidovna	



Ingliz tilini o'qitishda autentik videolarning amaliy samaradorligi.....	613
Dusmurodova Iroda Quvonovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurol qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	
Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rni	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
Xaitova E'zoxon Baxrom qizi	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li	
Maktabgacha yoshidagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rni	737
Toshpulatova Nargiza Abduraimovna	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
Bo'riyeva Fayyoza Baxodirovna	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
Jurayeva Umida Yuldashevna	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.....	748
Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
Toshpo'latova O'g'lioy Abdurahmon qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
Pardaeva Matonat Salimovna	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
Чернова Татьяна Алексеевна	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	772
Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
Xolikov Akmal Tajidinovich	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
Туракулова Дурдона Боходировна	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadirbayevich	



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQNI RIVOJLANTIRISH ORQALI EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISH

Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq va emotsional ko'nikmalarning o'zaro bog'liqligi ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda L.S. Vygotskiy, D. Goleman va zamonaviy SEL konsepsiyasi asosida nutqning emotsional rivojlanishdagi hal qiluvchi ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy rivojlanishi va emotsional intellekti kuzatuv hamda suhbatlar orqali o'rganilgan. Natijalarda nutqi rivojlangan bolalarda ijtimoiy-emotsional faollik yuqori, nutqiy cheklanishga ega bo'lganlarda esa emotsional muammolar ko'proq kuzatilishi aniqlandi. Maqolada ota-onalar va o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, nutqni emotsional tarbiya bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nutq, emotsional ko'nikmalar, emotsional intellekt, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, boshlang'ich ta'lim, muloqot madaniyati, empatiya, ijtimoiy kompetensiyalar, SEL (Social Emotional Learning), bolalar adabiyoti, dramatisatsiya, nutqiy mashqlar, pedagogik yondashuvlar.

Abstract: In this article, the interrelation between speech and emotional skills is analyzed from both theoretical and practical perspectives. Based on the ideas of L.S. Vygotsky, D. Goleman, and the modern SEL concept, the decisive role of speech in emotional development is highlighted. The speech development and emotional intelligence of primary school students were studied through observations and interviews. The results revealed that children with well-developed speech demonstrated higher social-emotional activity, while those with speech limitations were more likely to experience emotional difficulties. The article provides methodological recommendations for parents and teachers, emphasizing the importance of integrating speech with emotional education as a pressing issue.

Key words: speech, emotional skills, emotional intelligence, social-emotional development, primary education, communication culture, empathy, social competences, SEL (Social Emotional Learning), children's literature, dramatization, speech exercises, pedagogical approaches.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и практически проанализирована взаимосвязь речи и эмоциональных навыков. На основе идей Л.С. Выготского, Д. Голмана и современной концепции SEL раскрыта решающая роль речи в эмоциональном развитии. Речевое развитие и эмоциональный интеллект учеников начальных классов изучались посредством наблюдений и бесед. Результаты показали, что у детей с хорошо развитой речью социально-эмоциональная активность выше, а у детей с речевыми ограничениями чаще наблюдаются эмоциональные проблемы. В статье даны методические рекомендации для родителей и учителей, обоснована актуальность гармонизации речи и эмоционального воспитания.

Ключевые слова: речь, эмоциональные навыки, эмоциональный интеллект, социально-эмоциональное развитие, начальное образование, культура общения, эмпатия, социальные компетенции, SEL (Социально-эмоциональное обучение), детская литература, драматизация, речевые упражнения, педагогические подходы.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida bolalarning nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ham muhim hisoblanadi. Shaxsning his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalar emotsiyalariga moslashish va sog'lom munosabatlarni shakllantirishida nutq hamda muloqot hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki nutq – insonning ichki dunyosini tashqi olamga ifoda etuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Inson shaxsining to'laqonli rivojlanishida nutq va emotsiyalar uzviy bog'liqdir. Emotsional ko'nikmalar bolaning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalar kechinmalarini tushunish, muloqot madaniyatiga rioya qilish kabi ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantiradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davrida nutq bolaga nafaqat bilim olish, balki o'zini emotsional jihatdan boshqarishni o'rgatishda muhim hisoblanadi. Shu sababli bolalarda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni



yuksaltirish ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Inson shaxsining barkamol rivojlanishi ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki emotsional jihatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola o'z his-tuyg'ularini anglash, ifoda etish va boshqarishni o'rganish jarayonida nutq eng muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, emotsiyalar bolaning tafakkuri, xulq-atvori, muloqot madaniyati va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishda uzviy bog'liq holda kechadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim davrida nutq bolaning nafaqat bilim olishiga, balki o'z his-tuyg'ularini boshqarishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu ma'noda, nutq va emotsiyalar o'zaro uyg'unlikda rivojlanadi.

Birinchidan, nutq orqali emotsional anglash shakllanadi. Bola o'z kayfiyati, his-tuyg'ulari haqida gapira olishi natijasida ichki kechinmalarini boshqalar bilan bo'lishadi. Bu jarayon o'z navbatida ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, emotsional ko'nikmalar bola shaxsiy rivojida ijtimoiy kompetensiyalarni mustahkamlaydi. Masalan, boshqalar his-tuyg'ularini anglash, ularga hamdard bo'lish, ijobiy munosabat bildirish, muloqotda madaniyatli bo'lish – bularning barchasi kelgusida bolaning ijtimoiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, nutqni rivojlantirish emotsional intellektni yuksaltirishning asosiy sharti hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Emotsional intellekt – bu o'z his-tuyg'ularini boshqarish, boshqalarni tushunish va vaziyatga mos ravishda to'g'ri munosabat bildirish qobiliyati. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, badiiy adabiyot o'qish, ijodiy mashg'ulotlar hamda suhbatlar tashkil etish orqali emotsional intellektni samarali rivojlantirish mumkin. Shaxsning to'laqonli kamol topishi uchun nutq va emotsiyalar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanishi zarur. Boshlang'ich ta'lim davrida bolalarda nutqni rivojlantirish orqali ularning emotsional dunyosini boyitish, o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni o'rgatish, ijtimoiy kompetensiyalarini yuksaltirish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli pedagoglar va ota-onalar bolalarning nutqiy rivojlanishiga e'tibor qaratish barobarida ularning emotsional intellektini shakllantirishga ham alohida ahamiyat berishlari lozim.

Emotsional ko'nikmalar va nutqning o'zaro bog'liqligi ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, L.S. Vygotskiy nutqni bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, his-tuyg'ularini boshqarish va emotsional rivojlanishida vosita sifatida talqin qilgan. D. Goleman emotsional intellekt nazariyasida o'z emotsiyalarini ifodalash va boshqalar tuyg'ularini tushunishda nutq hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi. SEL (Social Emotional Learning) konsepsiyasi (Amerika psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan) ta'lim jarayonida nutq va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bolalarda empatiya, hamkorlik va konfliktlarni hal qilish qobiliyatlari shakllanishini asoslaydi. O'zbek olimlari orasida Sh. Sirojiddinov, R. Safarova va M. Yo'ldoshevalarning tadqiqotlarida ham boshlang'ich ta'lim jarayonida nutqni rivojlantirishning ijtimoiy-emotsional ta'siri ilmiy jihatdan o'rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzuga oid mahalliy va xorijiy adabiyotlar, ilg'or tajribalarni aks ettiruvchi monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalar hamda dissertatsiyalar atroflicha o'rganildi. Bu jarayon orqali nutq va emotsiyalar o'zaro bog'liqligiga oid turli nazariy qarashlar tahlil qilindi. Mahalliy adabiyotlarda bolalarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalariga urg'u berilgan bo'lsa, xorijiy tadqiqotlarda asosan emotsional intellekt va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llariga keng e'tibor qaratilgan. Shu jihatdan nazariy tahlil tadqiqotga ilmiy asos bo'lib xizmat qildi.

Turli nazariyalar va amaliy tajribalar o'zaro taqqoslandi. Mahalliy olimlar ta'lim jarayonida nutqiy faoliyatni rivojlantirish orqali shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlashga e'tibor qaratsalar, xorijiy olimlar bolaning emotsional intellektini tarbiyalash orqali ijtimoiy kompetensiyalarini yuksaltirishni ilgari surishgan. Ushbu qarashlar umumlashtirilib, bolalarda nutq va emotsional ko'nikmalarni birgalikda rivojlantirishning nazariy modeli shakllantirildi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyati va emotsional ko'nikmalari o'zaro bog'liqlikda o'rganildi. Dars jarayonlari, sinfdan tashqari tadbirlar hamda o'quvchilarning muloqot faoliyatini kuzatish orqali nutqning emotsional ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati aniqlandi. Kuzatishlar natijasida emotsional jihatdan faol o'quvchilar nutqiy jihatdan ham faolligi bilan ajralib turishi, aksincha, nutqiy jihatdan cheklangan bolalarda emotsional ifoda imkoniyatlari ham sust bo'lishi qayd etildi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, ota-onalar hamda o'quvchilarning o'zlari bilan suhbatlar o'tkazildi. O'qituvchilar bolaning nutqiy rivojlanishi va emotsional ifoda ko'nikmalari o'rta-sidagi bog'liqlikka oid amaliy tajribalari bilan bo'lishishdi. Ota-onalar esa oilada bola nutqini rivojlantirishda qanday sharoitlar yaratishlari va bu jarayonning emotsional tarbiya bilan qanchalik chambarchas bog'liq ekanini



ta'kidlab o'tdilar. Suhbatlardan olingan fikrlar umumlashtirilib, nazariy xulosalar amaliy ma'lumotlar bilan boyitildi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot metodologiyasi turli manbalar va usullar uyg'unligiga asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy va amaliy tadqiqot natijalarini taqqoslash orqali mavzuning dolzarbligi va samaradorligi yanada isbotlandi. O'tkazilgan kuzatuvlar, suhbatlar va pedagogik tajribalar natijasida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: Nutqi rivojlangan bolalarning ijtimoiy-emotsional faolligi. Nutqi yaxshi rivojlangan o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini aniq va ravon ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bunday bolalar dars jarayonida faol ishtirok etishga, savollarga javob berishga, fikrlarini muloqot orqali erkin bayon etishga moyillik ko'rsatadilar. Shuningdek, ular tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashda, o'qituvchi bilan muloqotda ijobiy emotsional muhit yaratadilar. Bu esa, o'z navbatida, ularning o'quv motivatsiyasini oshiradi.

Nutqiy cheklanish va emotsional muvozanatsizlik. O'z fikrini so'z orqali ifodalay olmaydigan bolalarda ko'pincha agressivlik, tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik kabi salbiy holatlar kuzatiladi. Ularning emotsional muvozanati tez buziladi, ba'zan o'qishga bo'lgan qiziqishlari pasayadi. Bu esa shuni ko'rsatadiki, nutqiy rivojlantirish darajasi bevosita bolaning emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etadi.

O'yinli metodlarning ta'siri. Darslarda rol o'yinlari, dramatizatsiya va dialog mashqlaridan foydalanish bolalarning emotsional ifoda imkoniyatlarini sezilarli darajada boyitadi. Chunki bunday metodlar orqali bola nafaqat so'z boyligini kengaytiradi, balki o'zini turli obrazlarda sinab ko'radi, turli his-tuyg'ularni ifodalashni o'rganadi. Natijada o'quvchilarda ijodkorlik, hamkorlik, ijobiy emotsional kayfiyat shakllanadi.

Bolalar adabiyotining ahamiyati. Ertak, she'r va hikoyalardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy va emotsional rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Adabiy matnlar orqali bola obrazli tafakkurni rivojlantiradi, qahramonlarning his-tuyg'ularini anglab, empatiya ko'nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, ertak va hikoyalardagi tarbiyaviy g'oyalar bolalarda ijobiy emotsional tajribalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Amaliy kuzatishlar natijalari. Kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki, muntazam ravishda nutqiy mashqlarda qatnashgan o'quvchilarda empatiya, o'zini boshqarish, jamoaga ijobiy munosabat bildirish kabi ko'nikmalar sezilarli darajada rivojlangan. Masalan, ular tengdoshlari bilan hamkorlikda ishlashda boshqalar fikrini inobatga olishga, vaziyatga mos ravishda o'zini tutishga harakat qiladilar. Bu esa emotsional intellektni rivojlantirishda nutqning o'rni naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Umumiy xulosa shuki, nutqiy rivojlanish va emotsional intellekt o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, birining rivoji ikkinchisiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqi rivojlangan bolalarda emotsional ifoda va ijtimoiy kompetensiyalar tezroq shakllanadi, nutqiy qiyinchiliklarga ega o'quvchilarda esa emotsional muammolar ko'proq uchraydi. Shuning uchun ta'lim jarayonida nutqiy mashg'ulotlarni emotsional tarbiya bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

1-jadval: Nutqiy rivojlanish va emotsional ko'nikmalar natijalari

Kategoriya	Ijobiy rivojlanish (%)	Qiyinchiliklar (%)
Nutqi rivojlangan bolalar	90	10
Nutqiy cheklangan bolalar	30	70
Rol o'yinlari va dramatizatsiya orqali	80	20
Bolalar adabiyoti ta'siri	85	15
Nutqiy mashqlar natijalari	88	12

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq bola shaxsining emotsional rivojlanishida bevosita va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nutq orqali bola o'z his-tuyg'ularini anglaydi, ularni boshqarishni o'rganadi va boshqalarning kechinmalarini tushunishga harakat qiladi. Bu jarayon esa empatiya, o'zini tuta bilish, muloqot madaniyati kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, nutqi rivojlangan bola sog'lom ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'yishda faolroq bo'ladi, darslarda tashabbuskorlik ko'rsatadi va jamoaviy ishlarda samarali ishtirok etadi. Shunday qilib, nutqni rivojlantirish – emotsional intellektni yuksaltirishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

O'quvchilarda nafaqat nutqiy, balki emotsional ifoda ko'nikmalarini ham rivojlantirish uchun darslarda hissiy muhit yaratish, rol o'yinlari, dramatizatsiya, badiiy matnlarni tahlil qilish kabi metodlarni ko'proq qo'llash zarur. Masalan, ertak qahramonlari his-tuyg'ularini nutq orqali ifodalash topshiriqlari o'quvchilarda emotsional sezgirlikni oshiradi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun SEL yondashuvlariga asoslangan malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Chunki o'qituvchi o'quvchilarda emotsional intellektni shakllantirishning asosiy subyekti hisoblanadi. Treninglarda nutqni emotsiyalar bilan uyg'unlashtirish texnologiyalari,



konfliktlarni konstruktiv hal qilish va muloqot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik ko'nikmalar berilishi lozim. O'yin asosidagi mashg'ulotlar, interfaol suhbatlar, dialog mashqlari, badiiy matnlarni dramatizatsiya qilish orqali bolalar nutqi faollashadi va emotsional ifodasi boyiydi. Shuningdek, bolalar adabiyotidan – she'r, ertak, hikoyalardan samarali foydalanish bola nutqini o'stirish barobarida, unda ijobiy emotsional tajribalar shakllanishiga xizmat qiladi. Oilada bolaning nutqiy rivojlanishi ko'p jihatdan ota-onalarning e'tibori va yondashuviga bog'liq. Shu sababli ota-onalar uchun metodik qo'llanmalar, tavsiya risolalari tayyorlash, seminar va treninglar tashkil etish muhim. Masalan, oilaviy o'qish odatini shakllantirish, birgalikda ertak o'qish va muhokama qilish, bolaning his-tuyg'ularini gapirtirishga rag'batlantirish kabi oddiy amaliy choralar katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech'. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 288 b.
2. Goleman D. Emotsional intellekt. – Moskva: AST, 2008. – 478 b.
3. What is SEL? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. – Chicago, 2020. – URL: <https://casel.org/what-is-sel/>
4. Sirojiddinov Sh. O'zbek tilshunosligida nutq va tafakkur masalalari. – Toshkent: Fan, 2019. – 210 b.
5. Safarova R. Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish metodlari // Pedagogika jurnali. – 2021. – №2. – B. 45-51.
6. Yo'ldosheva M. Emotsional intellekt va ta'lim jarayonida uning ahamiyati // Ta'lim va rivojlanish. – 2022. – №1. – B. 60-65.
7. Social-Emotional Functioning and Quality of Life in Children with Developmental Language Disorder.
8. Learning through language: The importance of emotion and mental-state language [Elektron resurs]. – <https://www.sciencedirect.com/> (data obrashcheniya: 18.09.2025).
9. Communication skills predict social-emotional competencies [Elektron resurs]. – <https://www.sciencedirect.com/> (data obrashcheniya: 18.09.2025).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.